

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASH SAMARADORLIGI

Daminova O'g'iloy Mirzaqul qizi

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

"Iqtisodiyot" kafedrasi assistenti

daminovaogiloy@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash samaradorligi masalalari tadqiq etilgan. Oziq-ovqat xavfsizligi konsepsiyasi, uni baholash mezonlari tahlil qilingan. O'zbekistonda oziq-ovqat ta'minoti darajasi statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'llari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, bozor iqtisodiyoti, oziq-ovqat ta'minoti, qishloq xo'jaligi, import, eksport, mahalliy ishlab chiqarish.

Abstract: This article examines the issues of the effectiveness of providing the population with food products in a market economy. The concept of food security and its assessment criteria are analyzed. The level of food security in Uzbekistan is studied based on statistical data. Ways to ensure food security in the country are proposed.

Keywords: food security, market economy, food security, agriculture, import, export, local production.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы эффективности обеспечения населения продуктами питания в условиях рыночной экономики. Проанализировано понятие безопасности пищевых продуктов и критерии ее оценки. На основе статистических данных изучен уровень продовольственной безопасности в Узбекистане. Предложены пути обеспечения продовольственной безопасности страны.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, рыночная экономика, продовольственное снабжение, сельское хозяйство, импорт, экспорт, местное производство.

Kirish

Aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ta'minlash masalasi har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida ham bu masala dolzarb ahamiyat kasb

etib, ayniqsa bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida oziq-ovqat ta'minoti tizimida bir qator muammolar yuzaga keldi.

Bugungi kunda global oziq-ovqat xavfsizligi masalasi dunyo bo'ylab eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 800 milliondan ortiq kishi

to'liq oziq-ovqat tanqisligidan aziyat chekmoqda. Bu esa oziq-ovqat ta'minoti tizimini samarali boshqarish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash samaradorligini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini taklif etishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- statistik ma'lumotlarni tahlil qilish
- qiyosiy tahlil
- tizimli yondashuv
- iqtisodiy tahlil

Tadqiqot uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlari asos qilib olindi.

Muhokama va natijalar

Respublika aholisining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati bilan mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahalliy oziq-ovqat tovarlari hajmi o'rtasida ichki bozorda mutanosiblikni ta'minlash, bunday

mahsulotlar turini kengaytirish, bozorlarimizni ular bilan ishonchli tarzda to'ldirib borish davlatimizning agrar oziq ovqat siyosatining bosh maqsadidir. Chunki mamlakat aholisining turmush farovonligi ko'p jihatdan ularning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida Respublika aholisini vitaminlarga boy, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va agrar tarmoqning eksport salohiyatini oshirishda katta imkoniyatlarga ega dehqonchilik sohasining o'rni beqiyos. Ushbu imkoniyatlardan to'liq foydalanish dehqonchilik sohasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini bilishni va ulardan samarali foydalanish tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu ko'p jihatdan mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, moddiy manfaatdorlik masalasi va moddiy-texnik ta'minot, mahsulot sotish borasidagi muammolarni hal etishga ham bog'liq bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish so'nggi yillarda ijobiy dinamikani ko'rsatmoqda. Quyidagi 1-jadvalda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi keltirilgan.

1-jadval

O'zbekistonda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi (ming tonna)^[9]

Mahsulot turi	2019	2020	2021	2022	2023	2023 y. 2019 y. ga nisbatan, %
G'alla mahsulotlari	7281	7425	7757	8064	8320	114.3
Kartoshka	2950	3143	3280	3437	3605	122.2
Sabzavot	10215	10459	10994	11580	12105	118.5
Meva va rezavorlar	2753	2855	3120	3405	3580	130.0
Go'sht (tirik vaznda)	2505	2526	2620	2745	2890	115.4
Sut	10714	11009	11372	11780	12250	114.3
Tuxum (mln. dona)	7755	7825	8120	8450	8820	113.7

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, barcha asosiy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2019-2023 yillarda o'sish tendensiyasiga ega. Ayniqsa, meva va rezavorlar (30%), kartoshka (22.2%) hamda sabzavot (18.5%) mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o'sgan.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasini baholash uchun aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy mahsulotlar miqdorini tibbiy me'yorlar bilan taqqoslash mumkin. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida aholi tomonidan oziq-ovqat mahsulotlariga, ayniqsa go'sht va go'sht mahsulotlari, sut hamda sut mahsulotlariga bo'lgan talab yuqori bo'lsa-da, ushbu ehtiyojning to'liq qondirilishi hali ham past darajada qolmoqda. Shu bilan birga, mamlakat ichki bozorda ushbu mahsulotlarning ko'pchilik turlarini ishlab chiqarishni oshirish va import hajmini qisqartirish

imkoniyatiga ega ekani e'tiborga loyiqdir.

Aytish joizki, oziq-ovqat mahsulotlarning asosiy qismi dehqon va fermer xo'jaliklarida yetishtiriladi. Bu esa mazkur sektorning salohiyati yuqori bo'lib, ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini anglatadi. Ayniqsa, chorvachilik sohasi asosan aholi tomonidan yuritiladigan shaxsiy tomorqa xo'jaliklari hamda dehqon xo'jaliklari asosida rivojlanib, ushbu tarmoqlar hisobidan jadal sur'atda kengayib bormoqda. Shu sababli, mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va agrar sohani yanada rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Respublikada bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash samaradorligini aniqlashda turli bosqichlardagi oziq-ovqat ta'minoti, aholining ijtimoiy guruhlari tomonidan asosiy

oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi bo'yicha turkumlash-tirishni hisobga olgan holda, sifat parametrlarining dinamik oshib borishini

tahlil qilish muhim hisoblanadi. (2-jadval)

2-jadval

O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli (kg/yil)[10]

Mahsulot turi	Tibbiy me'yor	2019	2020	2021	2022	2023	Ta'minlanganlik darajasi (2023 y.), %
Non mahsulotlari	110	167	165	163	160	158	143.6
Kartoshka	70	55	57	59	61	64	91.4
Sabzavot va poliz	142	277	280	285	290	295	207.7
Meva va rezavorlar	90	83	86	90	95	98	108.9
Go'sht va go'sht mahsulotlari	70	44	46	49	53	58	82.9
Sut va sut mahsulotlari	405	270	275	282	290	300	74.1
Tuxum (dona)	230	215	220	230	240	250	108.7

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2023 yilda aholi jon boshiga non mahsulotlari (143.6%), sabzavot va poliz mahsulotlari (207.7%), meva va rezavorlar (108.9%) hamda tuxum (108.7%) mahsulotlari iste'moli tibbiy me'yorlardan yuqori. Ammo go'sht va go'sht mahsulotlari (82.9%), sut va sut mahsulotlari (74.1%) hamda kartoshka (91.4%) bo'yicha hali tibbiy me'yorlarga to'liq erishilmagan.

Ma'lumki, oziq-ovqat mahsulotlari narxi oziq-ovqat bozorining holatini va rivojlanishini aks ettiruvchi muhim indikatorlardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash samaradorligini baholashda oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'zgarish dinamikasini tahlil qilish lozim bo'aldi. (3-jadval)

3-jadval

O'zbekistonda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxlari dinamikasi (o'sish sur'ati, %)[11]

Mahsulot turi	2019	2020	2021	2022	2023
Non mahsulotlari	18.5	16.8	12.5	10.2	8.5
Kartoshka	26.3	14.5	18.7	12.3	9.7
Sabzavot va mevalar	14.2	13.8	15.2	14.5	11.8
Go'sht mahsulotlari	22.5	19.6	16.8	13.2	10.5
Sut mahsulotlari	19.8	17.2	14.5	12.1	9.8
Tuxum	24.5	18.3	15.6	12.8	10.2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'sish sur'ati 2019-2023 yillarda pasayish tendensiyasiga ega. Bu hukumat tomonidan olib borilayotgan inflatsiyaga qarshi choralar samaradorligini ko'rsatadi.

Jamiyatning iqtisodiy negizi qay darajada qurilishi birinchi navbatda iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqaruvchi korxonalarining samaradorlik darajasi bilan belgilanadi. Ayniqsa, aholining turmush darajasi, sog'lig'ining xafsizligi birinchi o'rinda iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining turlari, sifati, hajmi va bahosiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la hamda sifatli qondirish, uning iste'mol xafsizligini ta'minlash davlatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lib turibdi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, birinchidan, aholining bu mahsulotlar bilan o'z vaqtida hamda yetarli darajada ta'minlanmasligi tufayli ijtimoiy turmushning pasayishi natijasi jamiyat

taraqqiyoti va ishlab chiqarishning samaradorlik darajasiga bevosita salbiy ta'sir qiladi.

Ikkinchidan, oziq-ovqat mahsulotlarining iste'molga yaroqlilik muddati juda qisqa davrni o'z ichiga olganligi sababli ularni ishlab chiqarish, saqlash va sotish ma'lum bir belgilangan davrda amalga oshiriladi, ya'ni «Ishlab chiqarish-saqlash-jo'natish-iste'mol» zanjirli jarayon aniq bir vaqttni talab qiladi.

Uchinchidan, aholining sog'ligi birinchi o'rinda iste'mol qilinadigan oziq - ovqat mahsulotlarining turlari, sifati, tayyorlanish va saqlanish texnologiyalari hamda muddatlariga rioya qilinishiga ko'p jihatdan bog'liq. Bu o'z navbatida oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashda hamda olingan mahsulotni iste'molchilarga jo'natishda o'ta ehtiyotkorlikni talab qiladi.

To'rtinchidan, inson uchun birinchi ehtiyoj hisoblangan oziq - ovqat mahsulotlarining tannarxi yoki bahosi aholi turmush darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omildir.

Narxlarini barqaror saqlab turish va shu orqali respublika aholisining oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qobiliyatini oshirish orqali, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik samardorligini oshirish

mumkin. Bunda oziq-ovqat mahsulotlarining eksport va import holati tahlilini ham ko'rib chiqish talab etiladi. (4-jadval)

4-jadval

**O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari importi va eksporti
(mln. AQSh dollari)[12]**

Ko'rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023
Oziq-ovqat mahsulotlari eksporti	1518	1523	1645	1825	2105
Oziq-ovqat mahsulotlari importi	2250	2345	2420	2385	2290
Saldo	-732	-822	-775	-560	-185

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari eksporti 2019-2023 yillarda 38.7% ga oshgan bo'lsa, import 1.8% ga oshgan. Natijada salbiy saldo 2019 yildagi 732 mln. dollardan 2023 yilda 185 mln. dollarga kamaygan. Bu mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport salohiyati oshayotganini ko'rsatadi.

Ushbu tendension o'zgarishlar oziq - ovqat xavfsizligi konsepsiyasi - mamlakat aholisini oziq - ovqat mahsulotlari bilan ta'minotining minimallik shartlarini bajarilishi va uning fiziologik ehtiyoji, inson salomatligiga sanitariya talablari nuqtai nazaridan qo'yilgan talablar asosida shakllangan faoliyat, asosiy tamoyillar, yo'nalishlar va xavfsizlikni amalga oshirish tadbirlari bosqichlarini tizimli tashkil qilishdan iborat, bu esa

keng qamrovli kompleks tizimni shakllantirishni talab etadi.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda oziq-ovqat ta'minoti sohasida quyidagi asosiy muammolar mavjudligini ko'rsatadi:

- aholi jon boshiga ayrim mahsulotlar iste'moli tibbiy me'yorlardan past, jumladan, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari bo'yicha tibbiy me'yorga nisbatan ta'minlanganlik darajasi past;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda mavsumiylik muammosi;
- agrosanoat majmuasining texnik va texnologik jihatdan orqada qolishi; zamonaviy texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi mahsulot sifati va hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash infratuzilmasining yetarli emasligi; bu mahsulotlarning katta qismi yo'qolishiga va narxlarning mavsumiy tebranishiga olib kelmoqda;

- oziq-ovqat importiga bog'liqlik darajasining yuqoriligi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi choralarni ko'rish maqsadga muvofiq:

- qishloq xo'jaligida intensiv texnologiyalarni joriy etish: zamonaviy texnologiyalar, suvni tejaydigan sug'orish tizimlari, yuqori hosildor urug'lik va ko'chatlarni keng joriy etish orqali hosildorlikni oshirish.

- oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish: qayta ishlash korxonalarini zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, xomashyoni chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish.

- logistika va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish: zamonaviy sovutgichli omborlar, logistika markazlari tarmog'ini kengaytirish, oziq-ovqat yo'qotilishini kamaytirish.

- fermer xo'jaliklari va agrosanoat korxonalari o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirish: klasterlarni rivojlantirish, shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish.

- import o'rnini bosuvchi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish: ichki bozorni himoya qilish va importni ratsionalizatsiya qilish choralarni ko'rish.

Xulosa va takliflar

Mamlakatda bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash samaradorligini ta'minlashda davlat makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish, oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarni bartaraf etish, ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish, eksportni rag'batlantirish, importni maqbullashtirish, soliqqa tortishda imtiyozlar berish, moliya-kredit mexanizmlarini rivojlantirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Bundan tashqari davlat mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ham bosqichma bosqich amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash samaradorligini oshirish uchun qishloq xo'jaligida intensiv texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, logistika va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish, fermer xo'jaliklari va agrosanoat korxonalari o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirish hamda import o'rnini bosuvchi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini barqaror ta'minlash, ichki iste'mol bozorini ishlab chiqarilgan

oziq-ovqat mahsulotlari bilan bekamuko'st to'ldirish, asosan qishloq joylarida zamonaviy yuqori unumli texnika va texnologiya bilan jihozlangan qayta ishlovchi ixcham korxonalarni jadal barpo etish, shu asosida yangi ish joylarini shakllantirish, ko'proq odamlarni ish bilan ta'minlash, ularning daromadlari va farovonlik darajasini yanada oshirish uchun quyidagi choratadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- mamlakat iqtisodiy va oziq-ovqat mustaqilligi manfaatlari yo'lida oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoati ishlab chiqarishni rivojlantirishga har tomonlama davlat yordamini ko'rsatish kerak;

- oziq-ovqat sanoati korxonalarni texnikaviy qayta jihozlash va takomillashtirishni amalga oshirish, jahon standartlari talablariga javob beruvchi oziq ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishini o'sishini ta'minlovchi yangi, yuqori samarali texnologiyalarni tadbiq etish;

- mahsulot ishlab chiqarishni o'stirish va kengaytirish, uning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, sohaning eksport salohiyatini sezilarli darajada o'sishini ta'minlash;

- oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish asosiga qishloq joylarida kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni. 23.10.2019.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. - 464 b.
3. Abduganiyev A., Abdurahmonov Q. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. - Toshkent: "O'qituvchi", 2019. - 480 b.
4. Umurzakov U.P., Toshboyev A.J. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning ilmiy-nazariy asoslari. - Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021. - 268 b.
5. Qosimov M.S., Abdullayev A.X. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash: muammolar va yechimlar. - Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2020. - 240 b.
6. Durmanov A., Li M., Maksumxanova A. Food Security and Current Issues of Agricultural Policy in Uzbekistan // International Journal of Food and Agricultural Economics. - 2022. - Vol.10. - No.3. - P. 283-296.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekistonning statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari. www.agro.uz
9. O'zbekistonda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi (ming tonna)
10. O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli (kg/yil)
11. O'zbekistonda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxlari dinamikasi (o'sish sur'ati, %)
12. O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari importi va eksporti (mln. AQSh dollari)